



## LINGVISTIK TAHLIL ME‘ZONLARI

***Bobojonov F.Q.***

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent,*

*Alisher Navoiy nomidagi Tosh DO‘TAU huzuridagi Davlat tilida  
ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi  
Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy bo‘linmasi rahbari*

***Saidahmadov Sh.B.***

*Nukus innovatsion instituti assistent o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** lingvistik ekspertiza, normativ-huquqiy hujjatlar lingvistik ekspertisasi, lingvistik ekspertiza obyekt, lingvistik ekspertiza predmeti, lingvistik ekspertiza aspektlari, lingvist-ekspert, mutaxassis-ekspert, lingvistik aspekt, yurislingvistika aspekti, psixolingvistik aspekt, lingvostatistik aspekt.

**Ключевые слова:** лингвистическая экспертиза, лингвистическая экспертиза нормативных правовых документов, объект лингвистической экспертизы, предмет лингвистической экспертизы, аспекты лингвистической экспертизы, лингвист-эксперт, специалист-эксперт, лингвистический аспект, право-лингвистический аспект, психоллингвистический аспект, лингвостатистический аспект.

**Key words:** linguistic expertise, linguistic expertise of normative legal documents, object of linguistic expertise, subject of linguistic expertise, aspects of linguistic expertise, linguist-expert, specialist-expert, linguistic aspect, legal-linguistic aspect, psycholinguistic aspect, linguastatistical aspect.

**Резюме:**

Maqolada o‘zbek tilshunosligida lingvistik ekspertiza sohasining shakllanishi, sohaga oid huquqiy-me‘yoriy hujjatlar, ilmiy-amaliy adabiyotlar xususida ma’lumotlar berildi. Shuningdek, lingvistik ekspertizaning ilmiy tadqiqot predmeti sifatida belgilash me‘zonlari, lingvistik ekspertiza maqsadlari, obyektlari va aspektlari xususida so‘z yuritildi.

**Резюме:**

В статье представлены сведения о формировании области лингвистической экспертизы в узбекском языкознании, нормативно-правовых документах и научно-практической литературе. Также были обсуждены критерии определения лингвистической экспертизы как предмета научного исследования, цели, объекты и аспекты лингвистической экспертизы.

**Summary:**

The article presents information about the formation of the field of linguistic expertise in Uzbek linguistics, normative legal documents and scientific and practical literature. The criteria for defining linguistic expertise as a subject of scientific research, goals, objects and aspects of linguistic expertise were also discussed.

Bugungi kunda amaliy tilshunoslikning yangi sohasi – nutqiy faoliyat mahsulini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish jarayoni nafaqat tilshunoslik aspektida, balki yuridik sohada ham muhim amaliy tadqiqot hisoblanadi. Tilshunoslikda tilning amaliy funksiyasidan samarali foydalanish va turli sohalar, shu jumladan, yurisprudensiyaga tatbiq etish masalasida turli tadqiqotlar yaratilgan. Lingvistik ekspertiza ko‘proq huquqshunoslik bilan aloqador bo‘lsa-da, mutlaqo huquqiy masalalarga bog‘liq bo‘lmagan lingvistik ekspertiza tadqiqotlari ham mavjud. Shu bois lingvistik ekspertiza amaliy tilshunoslikning alohida sohasi obyektidir. Lingvistik ekspertiza tadqiqotlari bilan shug‘ullanuvchi sohani ayrim adabiyotlarda lingvistik ekspertologiya, ayrim tadqiqotlarda kriminolingvistika, ba’zilarida esa yurilingvistika deb nomlash holatlari uchraydi. Fan yoki uning muayyan sohasi (tilshunoslar bu borada ham yakdil fikrga kelishgan emas) qanday nomlanishidan qat’iy nazar uning obykti, predmati va vazifalari deyarli aniq belgilab olingan.

Muayyan nutq faoliyati mahsuli bo‘lgan og‘zaki yoki yozma matnlarni til me’yorlariga muvofiqligini tekshirish, imloviy va uslubiy xatolarni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalar berish, matnda qo‘llanilgan lug‘aviy birliklarning qanday mazmun ifodalashini, matn talablariga muvofiqligini, qaysi obyektga qaratilganligini aniqlash, matnda yashirilgan tag ma’noni ochib berish, matnda ko‘zlangan ma’no to‘g‘ri aks etganligini aniqlash, matn tahriri bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, nutqiy faoliyat mahsulining huquqiy oqibatlariga doir tahlillar o‘tkazish kabi muayyan maqsadlar asosida matnning shakliy va mazmuniy tahlili bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar lingvistik ekspertiza jarayoni hisoblanadi.

A.N.Baranov lingvistik ekspertiza xususida shunday yozadi: “Lingvistik ekspertiza - muhim faktlarni aniqlashga va mutaxassisga qo‘yilgan savollarga javob olishga qaratilgan nutq faoliyati mahsullarini o‘rganish jarayoni hisoblanadi. Lingvistik ekspertiza obyekt haqida tavsiflovchi bayonotlarning to‘g‘riligini (noto‘g‘riligini) yoki mumkinligini (mumkin emasligini) aniqlashga imkon beradi. Lingvistik ekspertiza amaliy tilshunoslikda lingvistik obyektlarni o‘rganish uchun ishlab chiqilgan lingvistik nazariyalar va usullarga asoslanadi”. Darhaqiqat, lingvistik ekspertiza natijasida matnning axborot tashishdagi aniqlik va tushunarlilik darajasi ortadi, og‘zaki va yozma matnlar bilan bog‘liq ko‘plab munozarali masalalar yechim topadi.

Lingvistik ekspertiza tadqiqotlari maqsadi, mazmuni, tadqiq etilayotgan material turi va boshqa xususiyatlariga qarab ber necha turlarga bo‘linadi. Xomaki matn yoki tayyor matn ustida o‘tkazilishiga qarab, lingvistik ekspertiza tadqiqotlarini ikki turga bo‘lish mumkin:



1. Shakliy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari.
2. Mazmuniy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari.

**Shakliy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari** loyiha, tasdiqlanmagan yoki nashr etilmagan yozma xomaki matnlar, ya'ni tayyorlanayotgan matn ustida o'tkaziladi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining lingvistik ekspertizasi, nashrga tayyorlanayotgan darsliklarning yoshga doir lingvistik ekspertizasi, savdo belgisi, obyektlarning nomlari va reklama matnlarining loyihalari bo'yicha o'tkaziladigan lingvistik ekspertizalar shakliy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari hisoblanadi. Shakliy lingvistik ekspertiza tadqiqotlarida tayyorlanayotgan matnning imloviy, ishoraviy (punktatsion), uslubiy va grammatik xatolari tuzatilib, matn adabiy til normalariga muvofiqlashtiriladi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining lingvistik ekspertizasida matnning adabiy til normalariga muvofiqligi, aniqligi va tushunarligi, tanlangan lug'aviy birliklarning ko'zda tutilgan ma'noni bera olish imkoniyati; darsliklarning lingvistik ekspertizasida matnlarning o'quvchi yoshiga mos kelishi, ularning dunyog qarashi va til boyligiga muvofiqligi; savdo belgisi, obyektlar nomlari va reklama matnlarining lingvistik ekspertizasida matnning imloviy to'g'ri yozilganligi, milliyliги, jozibadorligi, jarangdorligi bo'yicha ekspert tomonidan tavsiyalar beriladi. Shakliy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari matnni tuzatish, tahrir qilish, mukammallashtirish maqsadida o'tkaziladi va ko'pincha matnning shakliy tuzilishiga o'zgartirishlar kiritiladi. Shakliy lingvistik ekspertiza og'zaki matnlar ustida o'tkazilmaydi.

**Mazmuniy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari** tayyor, tasdiqlangan yoki nashr qilingan matnlar ustida olib boriladi. Amalda bo'lgan normativ-huquqiy hujjat matnlarining, lokal normativ hujjatlarining va boshqa rasmiy nashrlarning, audioyozuv hamda videoyozuvlarning mazmunini tushuntirib berish, sharhlash, izohlash; badiiy yoki publitsistik matnlarda buzg'unchilik, ekstremizm, separatizm, shovinizm, egoizm g'oyalariining ilgari surilganligini (yoki bunday holatning mavjud emasligini), zo'ravonlik va axloqiy buzg'unchilikni targ'ib qilish alomatlarining mavjudligi (yoki mavjud emasligi)ni aniqlash; shaxslararo muloqotlarning video va audioyozuvlaridagi og'zaki suhbatlar mazmuniga aniqlik kiritish, suhbatdoshlarning kriminal "niqobli" so'z va iboralariining ma'nosini ochib berish; fuqarolar orasidagi nizoli suhbat matnlarida, ijtimoiy tarmoq yozishmalarida haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish alomatlari mavjudligini (yoki bunday holatning mavjud emasligini) aniqlash; ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlarda, postlardagi diniy, mafkuraviy, siyosiy qarashlar ilgari surilgan og'zaki yoki yozma matnlarda nutq egasining davlat siyosiy tuzumiga, milliy davlatchilikka, davlat va hokimiyat

vakillariga qarshi g'oyalarni ilgari surganligini (yoki bunday holatning mavjud emasligini) tadqiq etish; taqdim etilgan muallifi noma'lum matnlarning egasini aniqlash bo'yicha muallifshunoslik-sud filologiya ekspertizalarini o'tkazish kabilar mazmuniy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari hisoblanadi.

Mazmuniy lingvistik ekspertiza tadqiqotlarida matn mutlaqo o'zgartirilmaydi, tahrir qilinmaydi, xato va kamchiliklariga tuzatish kiritilmaydi. Matn ekspertizaga qanday taqdim etilgan bo'lsa, shundayligicha tadqiq qilinib, tahlillar o'tkaziladi. Mazkur tadqiqotlarda asosiy e'tibor matn mazmunini izohlashga, tushuntirib berishga, sharhlashga, yashirin yoki oshkora bo'lgan umumiy ma'noni ochib berishga qaratiladi.

Lingvistik ekspertizaning birinchi turi asosan lingvistik bilimlarni talab qilsa, ikkinchi turi huquqshunoslik, siyosatshunoslik, dinshunoslik, psixologiya, mantiq, jestologiya (videoyozuvlar uchun) kabi fanlardan ham xabardor bo'lishni taqazo qiladi. Shuningdek, lingvistik ekspertiza nihoyatda mas'uliyatli ishdir. Ayniqsa, lingvistik ekspertizaning bir turi bo'lgan lingvokriminalistik ekspertiza xulosalariga tayanilgan holda matn egasiga turli xil ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilanilishi mumkin.

Muayyan material lingvistik ekspertiza uchun taqdim qilinganda ekspert oldiga aniq maqsad qo'yiladi. Nutqiy faoliyat mahsuliga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda lingvistik yondashuv amalga oshiriladi. Ekspertiza sof lingvistik aspektda yoki huquqiy-lingvistik, sotsiolingvistik, psixolingvistik, pragmalingvistik, etnolingvistik yoki boshqa aspektlarda olib borilishi mumkin. Lingvistik ekspertiza o'tkazishda mutaxassis-ekspertning kvalifikatsiyasi, malaka va tajribasi ekspertizaning xolisligi va hoqqoniyligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois lingvist-ekspertdan o'z sohasining – amaliy lingvistikaning mutaxassisi bo'lishi bilan birga huquq, psixologiya, pragmatika, jestologiya, mantiq sohalaridan ham xabardor bo'lishi talab qilinadi. Aksariyat hollarda lingvistik ekspertiza xulosasi bo'yicha jarayonga huquqiy baho berilib, matnning mazmuniy talqiniga asoslangan holda nizolarga barham beriladi. Sud jarayonlarida lingvistik ekspertiza orqali gumondorning aybi (yoki aybsizligi) isbotlanishi mumkin. Shu bois lingvistik ekspertiza o'ta mas'uliyatli vazifa bo'lib, kompetentli va xolis yondashuvni talab qiladi.

Lingvistik ekspertizada xolis va aniq xulosa berish uchun nutqiy faoliyat mahsuli (og'zaki yoki yozma matn) bilan ekspert to'liq tanishib chiqishi maqsadga muvofiqdir. Zarur hollarda ekspertga qo'shimcha materiallar ham taqdim etiladi. Matndan yoki og'zaki nutqdan kesib olingan parchalar xolis va aniq xulosa qilish imkonini bermaydi. Qisqa matnlar yoki to'liq matndan yulug parchalar noto'g'ri talqinga olib kelishi ehtimoli yuqori. Ba'zan istisno tarzida



ekspertiza maqsadidan kelib chiqib, buyurtmachi talabi bo'yicha matndagi biror lug'aviy birlik ma'nosini izohlash uchun bir jumla yoki matn parchasiga tayanib ham ish ko'rish mumkin.

Lingvistik ekspertiza obyekti juda keng bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlar, me'yoriy hujjatlar, shartnoma matnlari, ish qog'ozlari, turli xil mazmundagi matnlar, nashr qilingan badiiy yoki ilmiy ijod namunalari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy ma'lumot va norasmiy muloqotlar, fuqarolar orasidagi ziddiyatli muloqotlar va yozishmalar lingvistik ekspertizadan o'tkazilishi mumkin.

Tilning sofligini saqlash, ommaviy savodsizlikning oldini olish maqsadida, ko'cha va peshlavha yozuvlarining, OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy saytlar hamda kanallardagi e'lon qilinayotgan axborotlar va ma'lumotlarni ham lingvistik ekspertizadan o'tkazish talabini kiritish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bunday talabni barcha turdagi ta'lim muassasalari darslik va qo'llanmalari uchun ham joriy qilish davr talabi hisoblanadi. Har qanday darslik yoki qo'llanmada qo'llaniladigan so'zlar o'quvchining yosh darajasiga mos bo'lishi mutaxassislar tomonidan o'rganib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu muammoni lingvistik eksperiza o'tkazish orqali hal qilish mumkin.

Amaliyotdagi ehtiyoj va zaruratga qarab lingvistik ekspertiza boshqa aspektlarda va maqsadlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: Учебное пособие. — М.: Флинта: Наука, 2007. Стр. 5
2. Кўчимов Ш. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини лингвистик экспертизадан ўтказиш. Методик қўлланма. Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Юристлар малакасини ошириш маркази. 2022. -26 б.
3. Musulmonova K.X. O'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari: Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ...diss. – Qo'qon, 2022.
4. O'rozov J.N. O'zbek tili lingvokriminalistikasi: monografiya. – Toshkent: "Bookmany print" nashriyoti, 2023.